

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMPYUTER DASTURLASH SOHASIDA YOSH
MUTAXASSISLARNI RAG‘BATLANTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-
TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-avgustdagi F-5689-son **farmoyishining** ijrosini ta‘minlash va yoshlarga axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida ta‘lim olishda keng imkoniyatlarni taqdim etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, AT “Aloqabank” hamda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasining (keyingi o‘rinlarda — IT-park) axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni maqsadli o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash va ularni keyinchalik ishga joylashtirish mexanizmini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, AT “Aloqabank” va IT-parkning:

a) ustav fondi 25 mlrd so‘m miqdoridagi, bunda uni 2022-yilda 80 mlrd so‘mgacha oshirishni hisobga olgan holda, AT “Aloqabank” huzurida mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida Venchur jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) tashkil etish;

b) ustav fondi 10 mlrd so‘m miqdoridagi mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida “IT-bilimlarni rivojlantirish markazi”ni (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etish, uning:

51 foiz miqdoridagi ulushini — IT-parkning pul mablag‘larini kiritish orqali;

49 foiz miqdoridagi ulushini — Jamg‘armaning pul mablag‘larini kiritish orqali shakllantirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

3. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida keyingi 5 yil ichida 100 minggacha yosh mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, ularni keyinchalik ishga joylashtirishda ko‘maklashish;

ilg‘or IT-kompaniyalar bilan hamkorlik o‘rnatish orqali axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohalari bo‘yicha xalqaro sertifikatlarni taqdim etishga ko‘maklashish;

yosh mutaxassislarni axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasidagi ta‘lim tashkilotlarida tayyorlash bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun maqsadli qarzlarni ajratish;

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari bo‘lgan axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasidagi ta‘lim tashkilotlariga (keyingi o‘rinlarda — ta‘lim tashkilotlari) ularni tegishli malakalari bo‘yicha ishga joylashtirish majburiyati bilan maqsadli qarzlarni ajratish;

vazirlik va idoralar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlarga axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida mutaxassislarni o‘qitish, ularning malakasini oshirish va kadrlarni tanlashda ko‘maklashish;

startup-loyihalarni moliyalashtirish maqsadida investitsion jamg‘armalarning mablag‘larini boshqaruv kompaniyasi funksiyalarini bajarish, shuningdek, venchur jamg‘armalar va moliyaviy institutlar mablag‘larini jalb etish.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili 5 yil ichida mutaxassislarning axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida maqsadli tayyorlanishini va ularning startup-loyihalarini moliyalashtirishni tashkil etish uchun Markazga 50 mlrd so‘m miqdorida amaldagi qayta

moliyalashtirish stavkasining yarmidan oshmagan holda qarz ajratiladi va u keyingi 5 yil ichida bosqichma-bosqich qaytariladi;

axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun Markaz tomonidan ta'lim tashkilotlari o'rtasida eng yaxshi takliflar tanlov asosida tanlab olinadi;

vazirlik va idoralar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlarning ehtiyojidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun Markaz tomonidan tanlangan ta'lim tashkilotlari o'rtasida har yili belgilangan maqsadli parametrlar doirasida buyurtma shakllantiriladi;

Markaz mablag'lari hisobidan ta'lim tashkilotlarida maqsadli o'qish uchun 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi nomzod bo'ladi;

nomzodlar Markaz tomonidan ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda tanlov asosida tanlanadi;

tanlab olingan nomzodlar (keyingi o'rinlarda — stipendiatlar) Markaz bilan ularning istiqboldagi daromadlarini ulush tarzida taqsimlash to'g'risidagi shartnomani (Income Share Agreement) tuzadi, unga ko'ra axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida ularning o'qishini to'lashga maqsadli qarz taqdim etiladi;

stipendiatlar axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida o'qishni tugatgandan so'ng Markaz bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida maqsadli qarz va ushbu qarz bo'yicha foizlarni qaytarishga majbur;

maqsadli qarz bo'yicha foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasidan oshmasligi zarur;

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga qarz Markaz tomonidan o'z mablag'lari hisobidan va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan qaytariladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, shuningdek, ularni keyinchalik ishga joylashtirish bo'yicha tashkiliy sxema [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Markazga axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim tashkilotlari bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida shartnoma tuzishga ruxsat berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

a) IT-park va "Inflex Inc" MChJning:

"PDP Academy" o'quv markazi bazasida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni tayyorlash, keyinchalik ishga joylashtirish uchun Markaz tomonidan "Inflex Inc" MChJga belgilagan tartibda bosqichma-bosqich qarz ajratish;

"Inflex Inc" MChJga tajriba tariqasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi Toshkent viloyatida "5 tashabbus" dasturi doirasida tashkil etilgan raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini 2 yil muddatga bepul foydalanish uchun berish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin;

b) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida maqsadli tayyorlanishini moliyalashtirish tartibini belgilash to'g'risida taklif kiritilsin.

8. AT "Aloqabank"ga IT-park bilan birgalikda Jamg'arma faoliyatini amalga oshirish hamda shartnoma asosida ishonchli boshqaruvga berish uchun boshqaruv kompaniyasini shaffoflik va raqobat tamoyillari asosida tanlov o'tkazish yo'li bilan tanlab olinishini ta'minlash tavsiya etilsin.

9. Vazirlik va idoralar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar ehtiyojidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini [2-ilovadagi](#) maqsadli parametrlariga muvofiq oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Vazirlik va idoralar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar ushbu maqsadli parametrlarga muvofiq axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash va malakasi oshirilishini ta'minlasinlar.

10. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda Markaz hamda axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim tashkilotlarining faoliyati keng yoritilishini tashkil etsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ikki oy muddatda Markazga belgilangan tartibda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidenti maqomini berilishini ta'minlasin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig'i O.M. Umarov hamda O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M. Sadikov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 31-avgust,
556-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 556-son qaroriga
1-ILOVA

Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, shuningdek, ularni keyinchalik ishga joylashtirish bo'yicha

TASHKILIY SXEMA

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbir	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, IT-bilimlarni rivojlantirish markazi	Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasidagi yosh mutaxassislarni maqsadli o'qitishni tashkil etish uchun amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasining yarmidan oshmagan holda qarz ajratish.	Har yili 10-yanvarga qadar
2-bosqich	IT-bilimlarni rivojlantirish markazi, IT-park direksiyasi	IT-park rezidentlari bo'lgan ta'lim tashkilotlari o'rtasida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlov asosida saralash.	Har yili 15-yanvarga qadar
3-bosqich	IT-bilimlarni rivojlantirish markazi	Tanlab olingan IT-park rezidentlari bo'lgan ta'lim tashkilotlari o'rtasida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha maqsadli parametrlar doirasida buyurtmani shakllantirish.	Har yili 25-yanvarga qadar

4-bosqich	IT-bilimlarni rivojlantirish markazi, stipendiatlar, ta'lim tashkilotlari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nomzodlarni (stipendiatlarni) tanlov asosida tanlash. 2. Stipendiatlar va IT-bilimlarni rivojlantirish markazi o'rtasida istiqboldagi daromadlarini ulush tarzida taqsimlash to'g'risidagi shartnomani tuzish. 3. Stipendiatlarni axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash bo'yicha o'qitish. 	Alohida jadvalga muvofiq
5-bosqich	IT-bilimlarni rivojlantirish markazi, stipendiatlar	<ol style="list-style-type: none"> 1. Stipendiatlarni ishga joylashtirish. 2. Ishga joylashtirilgan stipendiatlarning ish haqidan maqsadli qarz va ushbu qarz bo'yicha foizlarni qaytarish. 	<p>O'qitish tugagandan so'ng</p> <p>5 yildan ortiq bo'lmagan muddatda</p>

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 556-son qaroriga
2-ILOVA

Vazirlik va idoralar, tijorat banklari va boshqa tashkilotlar ehtiyojidan kelib chiqib, axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirishning maqsadli parametrlari

Tashkilot nomi / yo'nalishi	Jami mutaxassislar (nafar)	shulardan:			
		2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	88	14	20	22	20
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	40	6	9	10	9
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	31	5	7	8	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	17	3	4	4	4
Andijon viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	46	7	11	11	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	21	3	5	5	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	17	3	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Buxoro viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	50	9	11	13	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	17	3	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Jizzax viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	41	6	9	11	9
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	19	3	4	5	4
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	14	2	3	4	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Navoiy viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	36	5	9	9	8
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	15	2	4	4	3

<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	13	2	3	3	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Namangan viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	41	6	9	11	9
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	19	3	4	5	4
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	14	2	3	4	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Samarqand viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	50	9	11	13	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	17	3	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Sirdaryo viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	52	9	11	14	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Surxondaryo viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	41	6	9	11	9
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	19	3	4	5	4
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	14	2	3	4	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Toshkent viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	233	37	54	58	51
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	105	17	24	26	23
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	81	13	19	20	18
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	47	7	11	12	10
Farg'ona viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	24	4	5	6	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	11	2	2	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Qashqadaryo viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	55	9	13	14	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	24	4	6	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	12	2	3	3	2
Xorazm viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	50	9	11	13	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	17	3	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Toshkent shahar hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, tashkilotlar	122	20	28	31	26
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	55	9	12	14	12
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	43	7	10	11	9
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	24	4	6	6	5
Adliya vazirligi	164	26	38	41	36
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	74	12	17	19	16

<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	57	9	13	14	13
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	33	5	8	8	7
Favqulodda vaziyatlar vazirligi	85	14	20	21	19
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	38	6	9	10	8
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	30	5	7	7	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	17	3	4	4	4
Xalq ta'limi vazirligi	451	71	104	113	100
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	203	32	47	51	45
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	157	25	36	39	35
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	91	14	21	23	20
Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	504	80	116	126	111
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	227	36	52	57	50
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	177	28	41	44	39
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	100	16	23	25	22
Suv xo'jaligi vazirligi	559	89	129	140	122
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	251	40	58	63	55
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	195	31	45	49	43
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	113	18	26	28	25
Turizm va sport vazirligi	25	4	6	6	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	12	2	3	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Ichki ishlar vazirligi	509	82	117	128	111
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	229	37	53	57	50
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	179	29	41	45	39
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	101	16	23	26	22
Maktabgacha ta'lim vazirligi	25	4	6	6	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	12	2	3	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Qishloq xo'jaligi vazirligi	61	9	14	15	14
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	27	4	6	7	6
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	21	3	5	5	5
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	13	2	3	3	3
Qurilish vazirligi	44	7	11	11	9
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	20	3	5	5	4
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	16	3	4	4	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	52	9	11	14	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Transport vazirligi	65	11	15	16	14
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	29	5	7	7	6
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	23	4	5	6	5
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	13	2	3	3	3
Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi	110	18	25	28	24
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	49	8	11	12	11

<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	38	6	9	10	8
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	23	4	5	6	5
Moliya vazirligi	254	40	59	64	56
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	114	18	26	29	25
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	89	14	21	22	20
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	51	8	12	13	11
Sog'liqni saqlash vazirligi	1259	202	289	315	277
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	567	91	130	142	122
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	441	71	101	110	97
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	251	40	58	63	55
Davlat statistika qo'mitasi	85	14	20	21	19
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	38	6	9	10	8
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	30	5	7	7	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	17	3	4	4	4
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	37	6	9	9	8
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	16	3	4	4	3
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	13	2	3	3	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Madaniyat vazirligi	105	15	21	24	23
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	11	5	2	3	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	29	5	6	6	6
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	65	5	13	15	16
Oliy attestatsiya komissiyasi	4	0	1	2	1
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	3	0	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	1	0	0	1	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
Tashqi ishlar vazirligi	21	3	5	5	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	1	2	2	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	34	8	8	8	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	13	3	3	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	13	3	3	3	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	2	2	2	1
Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi	17	5	3	3	3
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	6	2	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	6	2	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Energetika vazirligi	52	9	11	14	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	23	4	5	6	5
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	3	2
Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	23	4	5	6	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	10	2	2	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	32	8	5	6	6
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	13	3	2	3	2

<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	9	3	1	1	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	10	2	2	2	2
Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi	260	42	60	65	57
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	117	19	27	29	26
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	92	15	21	23	20
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	51	8	12	13	11
Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi	25	4	6	6	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	12	2	3	3	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi	42	6	7	8	9
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	9	1	1	2	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	11	1	2	2	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	22	4	4	4	4
"O'zarxiv" agentligi	26	4	6	6	6
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	18	3	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	4	0	1	1	1
Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi	21	3	5	5	5
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	1	2	2	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi	73	12	13	15	17
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	20	5	4	4	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	48	6	8	10	12
O'simliklar karantini va himoyasi agentligi	117	23	20	24	25
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	10	1	1	2	3
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	1	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	99	21	18	20	20
Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi	65	11	15	16	14
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	29	5	7	7	6
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	23	4	5	6	5
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	13	2	3	3	3
Davlat bojxona qo'mitasi	60	13	13	12	11
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	15	3	3	3	3
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	2	2	2	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	37	8	8	7	7
Davlat test markazi	17	3	4	4	4
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	1	2	2	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	4	1	1	1	1
Markaziy bank	144	23	34	36	31
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	64	10	15	16	14
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	51	8	12	13	11
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	29	5	7	7	6
Davlat soliq qo'mitasi	663	106	153	165	144
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	423	61	103	109	92
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	159	30	34	35	35

<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	81	15	16	21	19
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi	116	6	26	36	27
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	52	2	11	15	14
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	32	2	8	10	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	32	2	7	11	6
Gidrometeorologiya xizmati markazi	54	9	12	14	11
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	24	4	6	6	5
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	11	2	2	3	2
Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi	10	2	2	2	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	2	1	1	0
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	4	0	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	2	0	0	0	1
Yoshlar ishlari agentligi	37	6	9	9	8
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	16	3	4	4	3
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	13	2	3	3	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	8	1	2	2	2
Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi	16	2	4	4	4
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	1	2	2	2
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi	88	14	20	22	20
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	40	6	9	10	9
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	31	5	7	8	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	17	3	4	4	4
Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi	55	9	13	14	11
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	24	4	6	6	5
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	19	3	4	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	12	2	3	3	2
Innovatsion rivojlanish vazirligi	25	4	6	6	5
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	12	2	3	3	2
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	15	2	4	4	3
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	7	1	2	2	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
Fanlar akademiyasi	58	9	14	14	12
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	26	4	6	6	6
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	20	3	5	5	4
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	12	2	3	3	2
Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi	8	2	3	1	1
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	3	0	1	1	0
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	1	1	0	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	2	1	1	0	0
Kinematografiya agentligi	13	2	3	3	3

<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	12	6	3	2	1
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	7	4	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	1	1	1	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	2	1	1	0	0
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi	9	2	2	2	2
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	4	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi	7	1	1	2	2
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	2	0	0	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	2	0	0	0	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	1	1	1	0
“O'zmetkombinat” AJ	217	35	49	54	48
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	97	16	22	24	21
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	76	12	17	19	17
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	44	7	10	11	10
“Navoiy KMK” DK	90	18	18	18	18
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	50	10	10	10	10
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	15	3	3	3	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	25	5	5	5	5
“Olmaliq KMK” AJ	96	22	23	17	17
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	42	9	14	7	6
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	26	5	4	5	6
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	28	8	5	5	5
“O'zagrolizing” AJ	5	0	2	2	1
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	1	0	0	1	0
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	1	0	1	0	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
“Toshshahartransxizmat” AJ	15	3	3	3	3
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
“O'zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi	15	2	4	4	3
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	7	1	2	2	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
“O'zcharsanoat” uyushmasi	10	2	2	3	2
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	4	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	1	0	0	1	0
“O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	56	20	18	6	6
<i>Dasturiy ta'minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	11	3	2	2	2
<i>Ma'lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	6	2	1	1	1

<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	39	15	15	3	3
“O‘ztransgaz” AJ	128	20	29	32	29
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	58	9	13	15	13
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	44	7	10	11	10
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	26	4	6	6	6
“O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJ	13	2	3	3	3
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
“O‘zavtosanoat” AJ	25	4	6	6	5
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	12	2	3	3	2
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	8	1	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	120	24	24	24	24
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	40	8	8	8	8
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	40	8	8	8	8
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	40	8	8	8	8
“O‘zagrosug‘urta” AJ	27	5	6	6	6
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	13	2	3	3	3
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	9	2	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
“Dori-Darmon” AK	4	2	1	0	1
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	1	1	0	0	0
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	0	0	0	0	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	1	1	0	1
“O‘zbekneftgaz” AJ	103	18	23	27	19
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	55	10	12	14	10
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	34	6	8	9	6
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	14	2	3	4	3
“KAFOLAT sug‘urta kompaniyasi” AJ	12	2	3	3	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	2	0	1	1	0
“O‘zbekko‘mir” AJ	7	1	2	2	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	0	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
“O‘zeltexsanoat” uyushmasi	7	1	2	2	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	0	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
“O‘zdonmahsulot” AK	15	2	4	4	3
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	7	1	2	2	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	172	27	40	43	38
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	77	12	18	19	17
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	60	10	14	15	13
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	35	5	8	9	8

“O‘zkimyosanoat” AJ	504	74	94	106	100
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	41	5	6	9	8
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	29	2	3	5	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlarini boshqarish va boshqalar</i>	434	67	85	92	93
“O‘zikkilamchiranglimetall” AJ	13	2	3	3	3
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	5	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	0	1	1	1
“Uzbekistan Airways” AJ	5	2	2	1	0
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	0	0	0	0	0
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	2	1	1	0	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	3	1	1	1	0
“Uzbekistan Airports” AJ	22	2	5	5	5
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	0	2	2	2
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	5	1	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	9	1	2	2	2
“O‘zbekgidroenergo” AJ	105	17	24	26	23
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	48	8	11	12	10
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	36	6	8	9	8
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	21	3	5	5	5
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	425	68	97	106	94
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	191	30	44	48	42
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	149	24	34	37	33
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	85	14	19	21	19
“O‘zsuvta‘minot” AJ	220	38	60	51	40
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	30	5	10	6	5
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	50	8	10	15	10
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	140	25	40	30	25
“Hududgazta‘minot” AJ	16	5	4	3	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	2	1	1	0	0
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	2	1	1	0	0
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	12	3	2	3	2
“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi	7	1	2	2	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	0	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi	7	1	2	2	2
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	4	1	1	1	1
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	3	0	1	1	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	0	0	0	0	0
“Aloqabank” AT	126	20	29	31	28
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	56	9	13	14	12
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	44	7	10	11	10
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	26	4	6	6	6
“Asaka” ATB	245	40	56	61	54
<i>Dasturiy ta‘minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	110	18	25	28	24
<i>Ma‘lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	86	14	20	21	19

<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	49	8	11	12	11
“O‘zbekinvest” EISK AJ	20	3	5	5	4
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	8	1	2	2	2
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	7	1	2	2	1
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	5	1	1	1	1
“Xalq banki” ATB	150	30	30	30	30
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	50	10	10	10	10
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	50	10	10	10	10
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	50	10	10	10	10
“Ipoteka-bank” ATIB	413	66	95	103	91
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	186	30	43	46	41
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	144	23	33	36	32
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	83	13	19	21	18
“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	142	20	25	33	34
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	73	10	12	18	18
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	35	5	6	8	8
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	34	5	7	7	8
“Agrobank” ATB	40	8	8	8	8
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	10	2	2	2	2
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	10	2	2	2	2
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	20	4	4	4	4
“Mikrokreditbank” ATB	175	32	36	39	36
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	68	14	12	13	14
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	37	7	8	8	7
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	70	11	16	18	15
“Qishloq qurilish bank” ATB	155	24	35	38	35
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	70	11	16	17	16
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	53	8	12	13	12
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	32	5	7	8	7
“Turon bank” ATB	140	30	31	31	25
<i>Dasturiy ta’minot va mobil ilovalar ishlab chiqish</i>	56	10	12	14	10
<i>Ma’lumotlar bazasini yaratish hamda boshqarish</i>	16	3	4	3	3
<i>Tarmoq administratori, axborot xavfsizligi va boshqalar</i>	68	17	15	14	12
Davlat organlari va tashkilotlari bo‘yicha jami	11 609	1 907	2 622	2 819	2 500
Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari va boshqa tashkilotlar	88 391	10 852	11 975	21 564	21 800
Jami	100 000	12 759	14 597	24 383	24 300

Izoh: Ushbu maqsadli ko‘rsatkichlar tashkilotlarning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek ularga bo‘ysinuvchi korxonalarini o‘z ichiga oladi.

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.08.2021-y., 09/21/556/0844-son)